

KINOYA TURLARI MASALASI VA ULARNING O'ZARO FARQLANISHI

Turdimatova Madinaxon Ravshanbek qizi

FarDu tadqiqotchisi.

Ma'lumki, kinoya keng qamrovli hodisalardan bo'lib, tarix, falsafa, estetika, psixologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi fanlarda tadqiq qilinadi. Kinoyaning tadqiqida uning turlanishi ham e'tiborli masalalardan biridir. Kinoyani qanday qilib o'ziga xos tarzda nazariy tasniflash jarayoni ham bir qancha bahs-munozaraga ega. Bu jarayonga bir nechta takliflar mavjud bo'lib, ular odatda bir xil shakldagi klasterga tayanadi. Shunday bo'lsa-da, kinoya turlarini qanday joriylash va ierarxik tartiblar orqali jamlashga qaratilgan nazariy kelishuvlar kam sonlini tashkil qiladi. Shunga qaramay, Preminger¹, M.Abrams,² J. A.Suddon³ kabi olimlarning ilmiy-nazariy ma'lumotlarga murojaat qilinganda, odatda **verbal kinoya** (*verbal irony*), **dramatik kinoya** (*dramatic irony*), **kosmik kinoya** (*cosmic irony*) va **romantik kinoya** (*romantic irony*) kabi kamida to'rtta asosiy turlari inobatga olinadi. Oxirgi uch tur ba'zan **vaziyat kinoyasi** (*situational irony*) shakllari sifatida og'zaki kinoya bilan o'zaro qarama-qarshi qo'yiladi, ya'ni ironist (kinoyachi) mavjud bo'lmay, vaziyat taqozo etadigan turga nisbatan ishlatiladi; shuning uchun "U kinoya qilyapti", "Piching qilyapti" tarzidagi iboralar o'rniga "bu kinoyali" birikmasi ko'p holatda qo'llaniladi⁴.

Verbal kinoya – "so'zlovchi nazarda tutgan ma'no, go'yoki ifodalangan ma'nodan keskin farq qiladigan fikr-mulohaza"⁵. Bundan tashqari, u, masalan, adabiy tuzilma bo'libgina qolmay, balki so'zlovchi tomonidan atayin ishlab chiqiladi. Verbal kinoya ba'zan boshqa turli xil adabiy vositalarni, masalan, giperbola va uning aksi hisoblangan

¹ Preminger, Alex; Brogan, Terry V. F. (1993). The New Princeton Encyclopedia of Poetry and Poetics. MJF Books.

² Abrams, M. H.; Harpham, Geoffrey. A Glossary of Literary Terms. Cengage Learning, 2008. –P. 165-168

³ Cuddon, J. A. A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory. John Wiley & Sons. 2013. –P. 371-373.

⁵ Abrams, M. H.; Harpham, Geoffrey. A Glossary of Literary Terms. Cengage Learning, 2008. –p. 165.

litotalarni ham o'zida jamlaydi⁶. Aksariyat holatda verbal kinoya og'zaki (словесная ирония) kinoyaga sinonim bo'lib keladi.

Dramatik kinoya, asosan dramatik asarlarda, voqealar zanjirini kuzatib boruvchi tomoshabinlarga qaysidir qahramonlarning ma'lum bir voqeadan bexabarligini nomoyon qiladi, shu bilan birga tomoshabinni shunday ilojsiz holatga tushirib qo'yadiki, qahramonlar vaziyatidan; kerakli vaziyatga o'zaro zid so'zlari, harakatlaridan boxabar bo'ladi⁷.

M.Abrams kinoyaning ushbu turida uch bosqichni pog'onalar ko'rsatib beradi – (kinoyaga aloqador vaziyatni) *o'rin olishi*, *ekspluatatsiya (shu vaziyatga ko'chish)* va *yechim (ko'p hollarda tayyorgarlik, ikkilanish va hal qiluvchi pog'ona deb ham ataladi)* – kuzatuvchilar (ayniqsa, tomoshabinlar) uchun ma'lum bo'lgan, bir qahramon tayanadigan, suyangan yo'l yoki chora ayni dramatik ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Tragedik kinoya – dramatik kinoyaning bir ichki o'ziga xos ko'rinishlaridan biri hisoblanadi⁸.

Kosmik kinoya ba'zan "taqdir kinoyasi" (the irony of fate) deb ham ataladi, kinoyaning bu turi ham dramatik kinoya kabi bir nutq vaziyatida sodir bo'lib qolmay, voqealar zanjiri orqali kosmik vaziyatni namoyon qiladi. Ma'lum bir personajlar taqdiri yoki tanlagan yo'lga, oxir-oqibatda inson nazorati ostida bo'lmagan kuchlar tomonidan turtki beriladi. Kosmik kinoyaning negizini inson taqdirida bor ko'rguliklar, falokat, omad, muvaffaqiyat, nasiba, baxt kabi tushunchalarni "peshonasiga bitilgan" iborasiga taslim bo'lish nazdida tushunish mumkin⁹.

Romantik kinoya kosmik kinoya bilan chambarchas bog'liq va ba'zida bu ikki atama bir-birining o'rnida tushunilishi ham mumkin. Shunday bo'lsa-da, romantik kinoya o'ziga xos xususiyatga ega, bunda muallif samoviy kuch rolini o'z zimmasiga oladi¹⁰. Bu atama Fridrix Shlegel va dastlabki nemis romantiklari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular ham Kierkegaard voqealarni aks ettirishni o'z qo'lida deb hisoblagandek, kosmik

⁶ Preminger, Alex; Brogan, Terry V. F. The New Princeton Encyclopedia of Poetry and Poetics. MJF Books, 1993, – p.635.

⁷ Abrams, M. H.; Harpham, Geoffrey. A Glossary of Literary Terms. Cengage Learning, 2008. –p. 167.

⁸ Hirsch, Edward. A Poet's Glossary. Houghton Mifflin, 2014. –p. 314.

⁹ Abrams, M. H.; Harpham, Geoffrey. A Glossary of Literary Terms. Cengage Learning, 2008. –p. 167.

¹⁰ Hirsch, Edward. A Poet's Glossary. Houghton Mifflin, 2014. –p. 314.

ironiyani metafizik ahamiyatga ega deb talqin etishgan. Bu kinoyaviy tur XX asr o'rtalarida "Yangi tanqidchilik" (new criticism) adabiy nazariyasining markazini aks ettirgan tushuncha sifatida ilgari surilgan.

Yuqorida keltirilgan kinoyaning dramatik, kosmik, romantik turlari falsafa, adabiyotshunoslik hamda estetika fanlarining tadqiqot obyektiga kiradi. Kinoya nafaqat adabiyotshunoslik, balki tarix, estetika va falsafa fanlarining obyekti sifatida o'rganilar ekan, ushbu fanlarga oid turlari ham belgilanadi. Jumladan, tarixiy kinoya tarixiy voqealar yoki vaziyatlarning natijalari mo'ljallangan yoki kutilganidan keskin farq qilganda namoyon bo'ladi. Falsafa fanida Sokratik kinoya tushunchasi qo'llanib, mashhur tarixiy shaxs, Suqrot nomi bilan atalgan, u o'zini nodon qilib ko'rsatib, boshqa birovning farosatsizligini yoki beo'xshovligini fosh qilishni asos qilib olgan.

Kinoya har qaysi tilda mavjud bo'lib, til sohiblari tomonidan ko'p qo'llanadigan va inson muloqotining ajralmas qismi hisoblanadigan universal hodisalardan hisoblanadi. Bugungi kunda kinoyaning tadqiqi keng miqyosda olib borilmoqda. Shunga qaramay, kinoyaning xususiyatlari hanuzgacha chuqur tadqiq qilinmagan, ayniqsa, kinoyaning ta'rifiga berilgan izohlar ziddiyatligi va to'liqsizligi bilan ajralib turadi¹¹.

Kinoyaning tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishlar soni talaygina bo'lsa-da, tadqiqotchi olimlar ushbu tushunchaning kelib chiqishi va uning tabiati haqida bitta umumiy xulosaga kelmagan. Shuning uchun kinoyaning ta'rifida xilma-xil izohlar mavjud bo'lib, bir- biridan keskin farqlanishi bilan ifodalanadi.

Kinoyaga xalqaro hamda o'zbek tili tilshunoslari tomonidan turli yondashuvlar, fikr-mulohazalar bilan obdon boyitilgan ta'riflar berilar ekan, ularning keskin xarakterga ega, yaqqol ongda muhrlanadigan va albatta bo'yoqdor misollar orqali gavdalantirib berilganligi diqqatga molikdir. Jumladan, o'zbek tilining izohli lug'atida kinoya tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: **Kinoya** – masxaralash, kulish uchun asl ma'nosidan boshqa, majoziy ma'noda aytilgan so'z, gap; qochirim, istehzo, piching, kesatiq ifodasi.

¹¹ Жолос Л.М., Пикалова Е.В. Семантический подход к изучению феномена иронии в современной лингвистике // Гуманитарные и социальные науки, 2023. – С.83-87.

Buyuk rus lugʻatshunosi Dal kinoyani oʻz lugʻatida quyidagicha talqin etadi: “ma’no jihatdan ifoda etilgan nutqning aksi boʻlib, istehzoli maqtov, ma’qullash orqali tanbehni namoyon etadi”¹².

P.I.Shpagin kinoyaning talqiniga ikki xil yondashishni taklif etadi, ya’ni kinoya ritorikaning usuli sifatida; gʻoyaviy-emotsional baholash, komik ifodaning turi sifatida belgilaydi¹³.

Kinoyaga berilgan ta’riflarni tasniflanishiga turli manbalar negizidagi oʻziga xosliklar namoyon boʻladi. Jumladan, N.Mahkamov va I.Ermatov tomonidan yigʻilgan “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati”da kinoyaga quyidagicha ta’rif beriladi: kinoya til birligini uning haqqoniy ma’nosiga nisbatan boshqa yoki qarama-qarshi ma’noda, kesatiq, qochiriq, piching bilan ishlatishdan iborat koʻchim turidir¹⁴.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abrams, M. H.; Harpham, Geoffrey. A Glossary of Literary Terms. Cengage Learning, 2008. –P. 165-168
2. Cuddon, J. A. A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory. John Wiley & Sons. 2013. –P. 371-373.
3. Preminger, Alex; Brogan, Terry V. F. The New Princeton Encyclopedia of Poetry and Poetics. MJF Books, 1993, – p.635.
4. Hirsch, Edward. A Poet's Glossary. Houghton Mifflin, 2014. –p. 314.
5. Abrams, M. H.; Harpham, Geoffrey. A Glossary of Literary Terms. Cengage Learning, 2008. –p. 167.
6. Жолос Л.М., Пикалова. Е.В.Семантический подход к изучению феномена иронии в современной лингвистике//Гуманитарные и социальные науки, 2023. –С.83-87.
7. Даль, В. И. Толковый словарь живого великорусского языка. Т. 4. – Санкт-Петербург, 1863–1866. –с. 970.

¹² Даль, В. И. Толковый словарь живого великорусского языка. Т. 4. – Санкт-Петербург, 1863–1866. –с. 970.

¹³ Шпагин, П. И. Ирония. М.: 1966. – С. 179–182.

¹⁴ Mahkamov N, Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati . – Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2013. – B.58

8. Шпагин, П. И. Ирония. М.: 1966. – С. 179–182.
9. Mahkamov N, Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2013. – B.58